

MAHALLA FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA YOSHLAR YETAKCHILARINING O'RNI

Dilafro'z To'ychiyeva No'monjon qizi
Qo'qon Davlat pedagogiga Instituti O'zbek tili fakultetining 1-kurs talabasi

Anotatsiya: ushbu maqolada mahallada yoshlar yetakchilarining o'rnini keng yoritildi. Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlar haqida ham fikrlar bildirildi.

Kalit so'zlar : yoshlar yetakchilari, mahalla, ayollar daftari, yoshlar daftari, yoshlar balansi, yoshlar portal, besh muhum tashabbus va strategiya

Bugungi kunda davlatimizda o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyatini yanada yaxshilash maqsadida mahallalararo keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning isboti sifatida Prezidentimizning 2022-yilning 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi va uning joylardagi ijrosini ta'minlash maqsadida har bir mahallaga yoshlar yetakchisi lavozimining joriy etilishini ta'kidlash o'rinnidir. Endilikda ushbu lavozim egalari o'z mahallasining har bir jabhada ravnaq topib borishida, unda istiqomat qilayotgan aholining, ayniqsa, yoshlarning muammolariga yechim izlashda bor kuch-g'ayratlarini sarf etmoqdalar.

Mahallalarda faoliyat yuritib kelayotgan yoshlar yetakchilarining maqsad va ustuvorligi shunchalar bisyorki, ulardan ayrimlarini misol tariqasida eslatib o'tamiz:

1. "Yoshlar balansi"ni shakillantirish: yoshlar to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni "Yoshlar daftari" va "Yoshlar portali" elektron platformalariga kiritib borish va ular bilan samarali ish tashkil qilish;
2. Mahallalarda yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish: milliy xalq o'yinlari va sport turlarini yoshlar orasida ommalashtirish, "Besh muhim tashabus" loyihalari, Yoshlar festivallari va boshqa madaniy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirish;
3. Yoshlarni ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste'dodi va tashabbuslarini rag'batlantirish hamda hayotda o'z o'rnini topishlariga ko'maklashish;
4. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishini va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash;
5. Huquqbazarlik sodir etishga moyilligi bo'lgan yoshlar bilan tizimli ishslash, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, ixtisoslashtirilgan o'quv-tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan yoshlarning ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilinishi va moslashuviga ko'maklashish va hokazolar.

Bundan tashqari, yoshlar yetakchilarining faolligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularga ko'maklashish maqsadida oltita yo'nalish doirasida yoshlar yetakchilari yordamchilari ham tayinlandi. Bular madaniyat va san'atni targ'ib qilish, sog'lom turmush tarzi va sportni ommalashtirish, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni tashkil

qilish, ma'naviyat va kitobxonlikni targ'ib qilish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va huquqiy savodxonlikni oshirish va tadbirkorlik g'oyalalarini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlardir.

Mahallalardagi yoshlar yetakchilari o'z hududlaridagi har bir yoshning qiziqishlari, intilishlari bilan tanishib, ularga ko'maklashish uchun har tomonlama sa'y-harakatlar amalga oshirmoqdalar. Bilamizki, mahallalarda uyushmagan yoshlar ham bo'lib, ularga e'tibor qaratish, bo'sh vaqtlarini to'g'ri taqsimlash, har xil oqimlardan ularni asrash tizimlari yo'lga qo'yilishida yetakchilarning faolligini ko'rishimiz mumkin.

Yetakchilar mahalladagi katta kichik yoshlarga o'z oilasidek g'amxo'rlik qilishi, uyma-uy yurib ularning muammolarini hal qilishi, yoshlarning oldiga qo'yan maqsadlariga imkon boricha shart-sharoit yaratib berishi, ularning ertangi faoliyati bugungidan porloq bo'lishi uchun chora-tadbirlar ishlab chiqishmoqda. Iqtidori, iste'dodi bo'lishiga qaramay muvaffaqiyatga erisha olmagan yoshlar bilan ishlash, ularga o'zligini namoyon etish uchun har xil ko'nikmalar berib borishmoqda. Joriy yilda amalga oshirilgan "Besh tashabbus" olimpiadalari bu borada asosiy o'rin egallab, ushbu olimpiada o'z ichiga olgan har xil tanlovlar, jumladan, Zakovat, Zukko kitobxon, Yosh kitobxon, Yosh kitobxon oila, tasviriy san'at, xonandalik, turli xil sport musobaqalarini tashkillashtirish yoshlarga o'z iste'dodlarini namoyon etishda imkoniyat yaratdi.

Bundan tashqari mahalladagi katta-kichikning madaniy dam olishi uchun turli xil tadbirlar o'tkazilishi, Yoshlar daftariga kiritilgan yoshlarga subsidiya asosida o'z tadbirkorliklarini boshlash uchun tikuv mashinalari, chorva mollari va hattoki yer maydonlarining berilishi, talaba yoshlarning kontrak to'lovlarining to'lanishida ham mahalla yetakchilarining hissasi beqiyos.

Yuqorida aytib o'tilgan ishlarning amalga oshirilishi mahalladagi yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning salohiyatini yuksaltirish, shu bilan birgalikda, bosqichma-bosqich tanlovlardan o'tib, respublikada g'oliblikni qo'lga kiritgan yoshlarga nafaqat o'z nomini, balkim mahallasi nomini dunyoga tanitish va buning natijasida ularda o'z hududidan faxr tuyish hissi shakllanishida keng o'rin egalladi. Bunda esa mahalla yetakchilarining faoliyati dasturulamal vazifasini bajarib kelmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yoshlardaftari.uz
2. Internet saytlaridan foydalanilgan.